

---

## “MAHALLAMIZNI JINOYATCHILIKDAN XOLI HUDUDGA AYLANTIRAMIZ” SHIORI OSTIDA FAOLIYAT OLIB BORGAN MAHALLALAR YETTLIGI RAG’BATLANTIRILADI



### **“Mahallamizni jinoyatchilikdan xoli hududga aylantiramiz” shiori ostida faoliyat olib borgan mahallalar yettiligi rag’batlantiriladi**

Tuman hokimi, tuman sektorlari rahbarlari va O‘zbekiston Respublikasi mahallalar uyushmasi So‘x tumani bo‘limi rahbari tomonidan tasdiqlangan rejaga asosan tumanimizning barcha mahalla fuqarolar yig‘inlarida 27 yanvardan 25 fevral kunigacha, ya'ni bir oy davomida jinoyatchilikni oldini olishda mahallalar yettiligining faoliyati mavzusida uchrashuv va ochiq muloqotlar o‘tkaziladi. Bugun Devayron mahallasidagi 16-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabida mazkur yo‘nalishdagi tadbir bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev, tuman prokurori Sadirali Mirzokarimov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining So‘x tumani Halq qabulxonasi va mahallalar uyushmasi So‘x tumani bo‘limi mutasaddilari ishtirok etdilar. Devayron va Umabara qishloqlari fuqarolari qatnashgan mazkur uchrashuvda kunning asosiy masalasi muhokama va tahlil etildi.

Qayd etildiki, o‘tgan 2024 yilda jinoyatchilik tumanda keskin oshmagan bo‘lsa ham, uning ba‘zi turlarining ko‘rsatgichlari bizdan samaraliroq faoliyat yurgizishni talab etadi. Jinoyatchilikni oldini olishda albatta, mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash katta ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadbirda shuningdek, aholini qiynayotgan muammo va kamchiliklar xususida murojaatlar qilindi. Tuman hokimi uchrashuv davomida aholi murojaatlari bilan ishlashda manzilli ish yuritgan mutasaddilar va jinoyatchilikni jilovlashda mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan va ushbu ko‘rsatgichni kamaytirishga muvaffaq bo‘lgan yettilikni rag‘batlantirishni ta’kidladi. Hamda barcha mahallalar mutasaddilari va yettiligiga tuman hokimi “Mahallamizni jinoyatchilikdan xoli hududga aylantiramiz” shiori ostida faoliyat olib borish yuzasidan qat’iy ko‘rsatma va vazifalar yukladi. Bunday tadbirlar mahallalarda muntazam o‘tkaziladi.

---

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-31 18:21:40

